



UDK: 7.032 (355) (09)

*Asxat BIYKUZIIYEV,*  
*O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, PhD*  
*E – mail: biy1982@bk.ru*  
**Orzubek O'RALOV,**  
*O'zbekiston Milliy universiteti talabasi*

*O'zXIA dotsenti, t.f.n T.Xatamov taqrizi asosida*

### PARTHIAN EMPIRE: DEVELOPMENT OF ART AND CULTURE

Annotation

The article examines the formation and development of art and culture in the Parthian Empire from the 3rd century BCE to the 3rd century CE, as well as its influence on Eastern and Western civilizations. Architectural traditions, sculpture, wall paintings, metalwork decoration, religious and secular ceremonial arts, and the synthesis processes that emerged due to the influence of Hellenistic culture are analyzed.

**Keywords:** Saka (Scythian) tribes, Dura-Europos, Hatra, Nisa, Aramaic script, Western Iranian language, Manichaean ideograms.

### ПАРФИАНСКАЯ ИМПЕРИЯ: РАЗВИТИЕ ИСКУССТВА И КУЛЬТУРЫ

Аннотация

В статье рассматриваются формирование и развитие искусства и культуры в Парфянской империи с III века до н.э. до III века н.э., а также её влияние на восточные и западные цивилизации. Анализируются архитектурные традиции, скульптура, настенные росписи, орнаментация металлических изделий, религиозное и светское церемониальное искусство, а также процессы синтеза, возникшие под влиянием эллинистической культуры.

**Ключевые слова:** скифские племена, Дюра-Европос, Хатра, Ниса, арамейское письмо, западно-иранский язык, манихейские идеограммы.

### PARFIYA IMPERIYASIDA SAN'AT VA MADANIYAT RIVOJI

Annotatsiya

Mil.avv.III asrdan to milodiy III asrlar oralig'ida mavjud bo'lgan Parfiya imperiyasida san'at va madaniyatning shakllanishi, rivoji va uning Sharq hamda G'arb tamaddunlariga ko'rsatgan ta'siri yoritiladi. Parfiyadagi me'moriy an'analar, haykaltaroshlik, devoriy tasvirlar, metall buyumlar bezagi, diniy va dunyoviy marosim san'ati hamda ellenistik madaniyatning kirib kelishi natijasida yuzaga kelgan sintez jarayonlari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** sak (skif) qabilalari, Dura Yevropos, Xatra, Niso, oromiy yozuvi, G'arbiy eroniy til, manixey ideogrammalari.

**Kirish.** Parfiya imperiyasi – qadimgi Sharq tarixida alohida o'rin tutadigan, siyosiy va madaniy jihatdan murakkab tuzilishga ega bo'lgan davlatlardan biridir. Miloddan avvalgi III asrda shakllanib, uch asrdan ortiq vaqt davomida Yaqin Sharqning muhim siyosiy markazlaridan biri bo'lgan Parfiya nafaqat geosiyosiy jarayonlarda, balki mintqa madaniy hayotida ham o'ziga xos o'rin egallagan. Ayniqsa, Parfiya san'ati o'z davrida Sharq va G'arb madaniy an'analari tutashgan hududda shakllangani bois unda ellenistik, mahalliy eroniy, mesopotamiyacha va qisman ko'chmanchi madaniyat unsurlar sintezi kuzatiladi.

**Adabiyotlar muhokamasi.** Parfiya imperiyasi madaniyati bo'yicha manbalarni 2 guruhga ajratish mumkin. Bu birinchi jihati moddiy manbalar bo'lib unda parfiya davri arxitekturasi va uning tasviriy san'atini yoritishda muhim sanaladi. Shuningdek, yozma manbalar esa, asosan, Parfiya imperiyasi yozuv tizimi va til sohalarini yoritishda muhim tadqiqot obyekti sanaladi. Mazkur manbalarni o'rganish orqali Parfiya imperiyasining madaniyati tarixini yoritishda jahonning turli davlatlarida tadqiqotlar ko'plab olib borilgan. Shuningdek, Parfiya imperiyasi madaniyati bo'yicha tadqiqotlarni ikki turga bo'lish mumkin. Birinchi guruhda asosan, chet el tadqiqotlari sanaladi. Bunda sovet va Yevropa olimlarning tadqiqotlarini o'z ichiga oladi. Sovet tadqiqotchilaridan, G.Koshelenko, N.Brunov, M. Massonlarning tadqiqotlari muhim sanaladi. Bunda Koshelenkoning ishlari Parfiyaning san'ati, ya'ni

arxitekturasi, tasviriy san'at va haykaltaroshligini yoritgan. M.Masson esa arxeologik tadqiqotlar orqali Parfiya davri Janubiy Turkmanistondagi shaharsozlik madaniyatini yoritishda muhim sanaladi. Shu bilan birga chet el tadqiqotlarida O. Shuazi, K.Mauri kabi tadqiqotlarida Eron tarixida Parfiya imperiyasining o'rni yoritib berilgan. Ikkinchi guruhda esa, asosan, Eron olimlarining tadqiqotlari ham muhim sanaladi. Garchi Eron tarixshunosligida biroq Parfiya imperiyasi tarixiga nisbatan tadqiqotlar kamligi bilan ajralib turadi. Bunga Eron tarixshunosligida Parfiya bu ko'chmanchi dunyo davlati sifatida qaraladi. Shunday bo'lishiga qaramasdan eronlik tarixchilar Parfiya tarixini ham yoritish M. Kayoniy, Y. Mazlumiy va P. Rozbeh kabi tarixchilar tomonidan aynan qadimgi Eron va Parfiya davri san'ati, madaniyati va tili haqida ma'lumotlar olish mumkin[1].


**Tadqiqot metodologiyalari.** Parfiya imperiyasi madaniyati va san'ati tarixini yoritishda davrlashtirish, tarixiy-qiyosiy, manbashunoslik tahlili kabi nazariy tarixiy metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Parfiya madaniyatiga oid tarixiy tadqiqotlarda berilgan talqinlarni tarixshunoslik tahlili miqyosida yoritish muhim, chunki Parfiya o'tish davri eronshunoslikda ko'chmanchilar davlati sifatida ham kam qamrovga ega. Shuningdek, nomadic sivilizatsiyani yoritishda va unga ellinistik madaniyatining aralashuv jarayonini o'rganishda tarixiy-qiyosiy tahlil muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, moddiy manbalarni

o'rganishda manbashunoslik tahlili, Parfiya davrining Eron tarixida tutgan o'rnini ko'rsatadi.

**Tahlil va natijalar.** Parfiya Imperiyasi Ellinistik davr O'rta Sharq mintaqasidagi eng yirik imperiya sanalar edi. Mil.avv. III asr o'rtalari va II asr boshlariga qadar mintaqada Parfiyadan tashqari deyarli to'liq markazlashgan davlatlar kam

bo'lgan. Faqat Armaniston va Sharqiy Eronda saklarning (Hind-Parfiya) davlatlari va Kichik Osiyo, Suriya mintaqalarini egallagan Rim imperiyasi mavjud edi. Parfiya davlati Qadimgi Eon davlatchilik tarixida muhim ahamiyat kasb etgan. Eronning ko'chmanchilar tomonidan tuzilgan dastlabki imperiyasi hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. Parfiya imperiyasining xaritasi (mil.avv 124 – 91)

Parfiya davlati gullab yashnagan davrda o'troq va ko'chmanchilarga xos madaniy muhit yaratishga ulgurdi. Mazkur muhit ahamoniylar va salavkiylar davridan qolgan madaniy yutuqlarni singdirgan holda rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Parfiya madaniy muhiti san'at va madaniyat, jumladan ko'hna Niso va Ktesifontdan topilgan arxeologik ma'lumotlar muhim ahamiyatga ega[2]. Ayrim tadqiqotchilar Eron sivilizatsiyaning Ahamoniylar imperiyasidan keyin deyarli turg'unlik davriga kirib qolgan deb hisoblashadi. Parfiya esa Ahamoniylar san'atining davomchisi emas balki uning sosoniylar davri merosiga o'tkazuvchi bir davr sifatida ko'rinadi. Mazkur davrda ellinistik davr va mahalliy an'analarining assimilyatsiyasi jarayoni Eron hududida ham boshlangan edi. Lekin bu jarayon madaniy ko'tarilishi yoki unga taqlidmi degan savolga ko'plab tadqiqotchilar tanqidiy ko'z bilan qaraydi. XIX asr oxirida yashab o'tgan mashhur fransuz tadqiqotchisi O.Shuazi Parfiya davri san'at va arxitekturasi haqida shunday fikr beradi: "Ahamoniylar sulolasining qulashi bilan (mil.avv. 330 - yil) Eron san'atining rivojlanishi to'xtadi va deyarli butunlay turg'unlik davri boshlandi; Parfiya sulolasidan saqlanib qolgan yodgorliklar shunchaki taqliddir"[3]. Yana bir sovet san'atshunos tarixchisi N.I.Brunov: "Biz uchun faqat ahamoniylar va sosoniylar davridagi fors me'morchiligi tarixi qiziq, chunki aynan shu davrlarda fors me'morchiligi juda qiziqarli va o'ziga xos shakl hamda kompozitsiyalarni yaratdi. Parfiya davrida esa fors me'morchiligi grek-rim me'morchiligi ta'siriga shu darajada berilib ketdiki, u o'z mustaqil qiyofasini yo'qotib, eklektik me'morchilikka aylangan", - degan fir bildiradi[4]. Biroq mazkur berilgan fikrlar ham deyarli nisbiy hisoblanadi. Chunki Parfiya san'ati va Ahamoniylar davri san'ati o'rtasida bir qancha parallelliklar mavjud. Shu bilan birgalikda Parfiya san'ati shunchaki fors va yunon me'morchiligining omuxtasini emas, balki unda mavjud elementlar ko'chmanchi skif va shimollik xalqlar badiiy san'atining elementlari ham o'z aksini topgan san'atga aylangan edi. Sosoniylar va ahamoniylar sulolasi san'atida fors san'atining turli bosqichlaridagi klassikasi mujassamlashgan bo'lsa-da parfiya san'atida ham o'ziga xos endemiklik bor edi. Bu esa bir qancha arxeologik yodgorliklar orqali saqlanib qolgan.

Xususan, Marv, Niso (Nishopur) shaharlaridagi qal'alar bunga misol bo'ladi. Marvdagi Durnali (Turnali) mudofaa inshootlarining arxitekturaviy yechimlariga e'tibor qaralilsa fors va O'rta Osiyo madaniy muhitining ta'siri shundoq sezilib turadi. Burjlar va shinaklarning shakli bizga ahamoniylar davri arxitekturasi eslatib turadi. Biroq bunga qarama-qarshi holda qadimgi Niso (Nishopur) da qad rostlagan "Kvadrat uy" ning qurilish rejasini mahalliy madaniyatni o'zida aks ettirsa-da uning

ichki fasdi va interyerida ellinistik unsurlar yaqqon ko'zga tashlanadi. Eng avvalo mazkur binoning markaziy zalida bizning ko'zimizga tashlanadigan ustun izlari bo'lgan. Ushbu ustunlarning qoldiqlari ellin me'morchiligini o'zida yaxshigina saqlab qolganligini ko'rsatadi[5]. Chunki, qadimgi Eron me'morchiligida ustunli qurish uslubi kam qo'llanilgan. Persepoldagi ustunli binolarning me'moriy yechimlari esa pastdan tepaga qarab qisqarishi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, Parfiya janubi g'arbidagi Mesopatamiya mintaqasidagi qadimgi shaharlar, jumladan, Kangavar, Hatra ibodatxonalarida esa mahalliy, ya'ni Mesopatamiya xalqlariga xos me'morchilik uslublari ham ko'zga tashlanadi. Eronning janubi-sharqidagi Seyiston mintaqasida Parfiya davri yodgorliklari, saroylar va ibodatxonalarning tarhi ellin me'morchiligini o'zida mujassamlashtirgan [6].

Ma'lumki, Parfiya imperiyasi davri (mil.avv. 250 – mil. 224) o'troqlashgan va ko'chmanchi madaniyatlarning kesishish davri bo'lsa-da dualistik madaniy aralashuv emas, balki yunon madaniyatining ham ta'siri ko'rinadigan 3 ta madaniy muhitning o'zaro omuxta bo'lgan davri sanaladi. Biz arshakiylar mintaqaga kirib kelgach faqat elitaning ustidagina ustun bo'ldi deya olamymiz. Chunki arshakiylar sulolasi bilan kirib kelgan oddiy ko'chmanchi saklar (skif sifatida ham qo'llash mumkin) ham o'z xo'jalik va madaniyati bilan kirib kelgan edi. Mil.avv. 330-250 yillar oralig'ida Eronda hukmronlik qilgan makedonlar (Aleksandr davri (mil.avv. 330-323) va salavkiylar davri (mil.avv 312-250) davri nazarda tutiladi) hukmronligi davrida siyosiy va madaniy sohada ellin madaniyatini kirib aralashishga ulgurgan edi. Biroq saklar va ellinlar madaniy muhiti kirib kelsa-da bu hududda yashayotgan forslar son jihatidan ancha ko'pligi sababli ham o'zlarining madaniyatini saqlab qolishgan, shu bilan bir qatorda ular bu ikki madaniyatni o'ziga singdirib assimilyatsiya qilib yubora olgan. Tasviriy san'atning rivojlanishi me'morchilikdan farq qiladigan jarayon sanaladi. Chunki tasviriy san'atda ko'chmanchilarning madaniy ta'siri me'morchilikdagidan ko'ra yaxshigina sezilib turadi. Parfiya davriga oid ko'plab binolarni o'rganish davomida topilgan devoriy tasvirlar va haykallarda yunon haykaltaroshligi belgilari kuzatiladi. Parfiya san'atining dastlabki bosqichlarida tasviriy devor rasmlari namunalari deyarli ko'zga tashlanmaydi. Parfiya uslubidagi rasmning boshlanish davri hozircha noma'lum bo'lib qolmoqda.

Ayniqsa, parfiya san'atida bo'yalgan devor rasmlari batafsil tavsiflanadi. Dura Yevroposda shu bilan bir qatorda Palmira va Xatradan ham ko'plab misollar mavjud. Devor rasmlari parchalari Ashshur va Bobilda topilgan[7]. Ko'pgina devor rasmlari ibodatxonalar va saroy zallaridan olingan. Dura

Yevropos ibodatxonasi va cherkovida asosan Injildan sahnalar mavjud. Mitrayumda Mitra xudosining sahnalari mavjud. Shaharning ba'zi ibodatxonalarida donorlar va ularning oila a'zolarining suratlari ko'zga tashlanadi. Dura Yevroposda eng yaxshi sof parfiya namunalari ma'bad devorlarida mil.avv I asrga tegishli. Bir sahnada Kononning takliflari ko'rsatilgan. Bu eng qadimgi Parfiya rasmlari qatoriga kiradi va Parfiya san'atining eng yuqori sifatli namunalaridan biridir[8]. Bu allaqachon ularning barcha stilistik xususiyatlarini ko'rsatadi.

Alohida figuralar oldindan qisqartirilgan arxitekturada joylashtirilgan bo'lsa-da, ularning bir nechtasi yerda, aksariyati kosmosda suzayotganga o'xshaydi. Barcha raqamlar old tomondan ko'rsatilgan. Parfiya rasmlarining yaxshi saqlanib qolgan namunalari asosan ibodatxonalar va ibodatxonalardan olingan. Dunyoviy rasmlar unchalik yaxshi saqlanib qolmagan, shuning uchun ular kamroq ma'lum va hujjatlashtirilgan. Ularning o'ziga xos xususiyati hukmron sinfning turmush tarzini ulug'laydigan jang va ov sahnalari bo'lganga o'xshaydi. Ayniqsa, chavandozning motivi keng tarqalgan edi. Bu yerda otlar to'liq chopishda ko'paytiriladi. Chavandozlarning o'zlari

tomoshabinga qaragan holda o'tirgan holda tasvirlangan. Jang sahnalarida odatda og'ir qurollangan katafratlar bo'ladi; ov sahnalarida oddiyroq jihozlangan kamonchilar bor. Ashshur saroyida bunday ot minish sahnasining qoldiqlari topilgan va ular binoning asosiy xonalarini bezatganga o'xshaydi. Yuqoridagi tasviriy san'at namunalaridan ko'rishimiz mumkinki, ov, chavandozlar va shu kabi motivlarning ko'rinishlari ko'chmanchi madaniyatlarning elementlarning ishlatilishi namoyon bo'ladi.

Xususan, Parfiya tili Sharqiy Efron xalqlari tili hisoblanib, sak tiliga qarindosh bo'lgan. Xitoy manbalarida "Davandan An Sigacha yashovchi xalqlar har xil tilda gaplashadi, lekin bir – birini tushinshadi", - deyilgan[9]. Sharq ta'sirining ba'zi izlari arman tilidagi parfiya so'zlarida saqlanib qolgan. Shu bilan birga Naqshi Rustamdagi sosoniylar podshosi Shopur II ning "Ka'abayi Zardusht" arxeologik yodgorligidagi parfiya tilining yodga olinishi, bu tilning madaniy ahamiyati katta bo'lganligini ko'rsatadi. Parfiya so'zlari kundalik arman lug'atida uchraydi; ot, sifat, qo'shimcha, ma'nodosh fe'l va ma'muriy va diniy leksika.

Nom	Belgi	Transkripsiya
Alef	𐎀	'a
Bet	𐎁	b
Gimel	𐎂	g
Dalet	𐎃	d
U	𐎄	h
Vay	𐎅	w
Zayin	𐎆	z
Heth	𐎇	h
Teth	𐎈	t
Yodh	𐎉	y
Kaph	𐎊	k
Lamedh	𐎋	l
Mem	𐎌	m
rohiba	𐎍	n
Samex	𐎎	s
Ayin	𐎏	a'
Pe	𐎐	p
Sadhe	𐎑	ş
Qoph	𐎒	q
Resh	𐎓	r
Shin	𐎔	ş
Taw	𐎕	t

1 – jadval. Pahlaviy yozuvi ( Arshakiylar davri)

Taksonomik jihatdan, hind-evropa tili bo'lgan parfiya tili shimoli-g'arbiy Eron tillari guruhiga, o'rta fors tili esa janubi-g'arbiy Eron tillari guruhiga kiradi.

Parfiya tili ikki muhim xususiyatga ega bo'lgan pahlaviy yozuv tizimidan foydalangan holda tarjima qilingan. Birinchidan, uning yozuvi oromiy tilidan, Ahamoniylar

kansleriyasining yozuvi (va tili) ( Imperator oromiy ) tilidan olingan. Ikkinchidan, unda ideogrammalar yoki logogrammalar sifatida berilgan oromiycha so'zlar ko'p bo'lgan; ular oromiy so'zlari sifatida yozilgan, lekin parfiyacha so'zlar sifatida talaffuz qilingan (1-jadval).

Parfiya tili eski Parfiya satrapiyasining tili bo'lib, Arsaklar saroylarida qo'llanilgan. Parfiya tili uchun asosiy manbalar Niso va Gekatompildan qolgan bir nechta yozuvlar, manixiy matnlari, sostoniyalarning ko'p tilli yozuvlari va keyingi o'rta fors tilidagi parfiya adabiyotining qoldiqlari [10]. Parfiya hokimiyati barham topganidan so'ng tuzilgan keyingi manixiy matnlari parfiya tilini qayta tiklashda muhim rol o'ynaydi. Bu manixey qo'lyozmalarida ideogrammalar yo'q. Parfiyaning yuqori elitasida hukmronlik qilayotgan parn qabilalarining umumiy yozuv uslubi haqida ma'lumotlar yo'q chunki ko'chmanchilarda yozuv madaniyati hali to'liq shakllanmagan. Balki, ular mahalliy aholi bilan adoptatsiya qilishgan. Shu sababli umumimperiya doirasida o'troq aholidan andoza olgan.

**Xulosa va takliflar.** Parfiya imperiyasida san'at va madaniyatning rivojlanishi mintaqaning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotiga bevosita bog'liq bo'lgan murakkab jarayondir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Parfiya san'ati o'zida yunon-rim estetikasi, mahalliy eroniy va

mesopotamiyacha an'analar, shuningdek, turli diniy tasavvurlarni mujassamlashtirgan holda sintezlangan madaniy hodisa sifatida shakllangan. Parfiyaga xos frontal tasvir, portretlarda realizm va marosim sahnalarining ko'pligi uning o'ziga xos milliy-estetik qarashlarga ega bo'lgan san'at maktabini yaratganini anglatadi.

Me'morchilikda esa gumbazli inshootlar, saroy majmualari, monumental ustunlar hamda turli bezak elementlari Parfiyaning Sharq me'morchilik an'alariga qo'shgan ulkan hissasini ko'rsatadi. Bundan tashqari, Parfiya madaniyati keyingi Sostoniyalar san'atiga, shuningdek, Markaziy Osiyo va Kavkaz hududlaridagi san'at maktablarining rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Xulosa qilib aytganda, Parfiya imperiyasi san'ati Sharq va G'arb madaniyatlarini bog'lovchi muhim halqa bo'lib, uning madaniy merosi bugungi kunda ham arxeologiya, tarix, san'atshunoslik va madaniyatshunoslik fanlari uchun bebaho ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Шуази.О. История архитектуры. М., 1937. – С 135; Н. И. Брунов. Очерки по истории архитектуры, т. I. М.- Л., 1937. – С 285; Массон В.М. Культурогенез Древней Центральной Азии / Под ред. Л.Б. Кирчо. СПб.: Филологический факультет СПбГУ; Изд-во С.-Петербур. ун-та, 2006. С 131; Kiani.M. The Aspects of Iranian Art in the Parthian Period. // World Applied Sciences Journal 18 (8). IDOSI, 2012. – P 1113; Maura K. Heyn: The Terentius Frieze in Context. In: Lisa R. Brody, Gail L. Hofman (Hrsg.): Dura Europos, Boston 2011. P 23; Mazloumi.Y. A scared celestial motif: an itroduction to winged angels iconography in Iran.// International Journal of Social Sciences. Volume 3, 2017. - P 688 – 687; Michael.E., Roozbeh.P. Proposal for encoding the Inscriptional Parthian, Inscriptional Pahlavi, and Psalter Pahlavi scripts in the SMP of the UCS // Universal Multiple-Octet Coded Character Set International Organization for Standardization, 2007. - P 3 – 4.
2. Пугаченкова.Г.А. Ниса: краткий путеводитель. – Ашхабад : Из-о Туркэнгосиздат. – С 13
3. Шуази. О. История архитектуры. М., 1937, стр. 135.
4. Брунов. Н. И. Очерки по истории архитектуры, т. I. М.- Л., 1937, стр. 285
5. Массон В.М. Культурогенез Древней Центральной Азии / Под ред. Л.Б. Кирчо. СПб.: Филологический факультет СПбГУ; Изд-во С.-Петербур. ун-та, 2006. С 131
6. Kiani.M. The Aspects of Iranian Art in the Parthian Period. // World Applied Sciences Journal 18 (8). IDOSI, 2012. – P 1113
7. Maura K. Heyn: The Terentius Frieze in Context. In: Lisa R. Brody, Gail L. Hofman (Hrsg.): Dura Europos, Boston 2011. P 23
8. Mazloumi.Y. A scared celestial motif: an itroduction to winged angels iconography in Iran.// International Journal of Social Sciences. Volume 3, 2017. - P 688 - 687
9. Бичурин.Н.Я. Собрание сведений о народах, овитавших в Средней Азии в древние времена : II часть. – Москва – Ленинград. Из-о. Академии наук СССР, 1950. – С 166
10. Michael.E., Roozbeh.P. Proposal for encoding the Inscriptional Parthian, Inscriptional Pahlavi, and Psalter Pahlavi scripts in the SMP of the UCS // Universal Multiple-Octet Coded Character Set International Organization for Standardization, 2007. - P 3 - 4